

**TARJIMADA MAQOL, MATAL VA FRAZEOLOGIZMLARNING
QAYTA TALQIN QILISH MUAMMOLARI
(AHMAT LUTFIY QOZONCHI “O‘GAY ONA” ASARI MISOLIDA)**

Jurakulov Kuvonchbek Naim o‘g‘li

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
ommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi,

Tel: +998939946461;

Email: juraqulovquvonchbekg@mail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola Ahmat Lutfiy Qozonchining “O‘gay ona” asarida berilgan maqol, matal va turg‘un birikmalarni tarjimada qay darajada tarjima qilinganligini aniqlashga bag‘ishlangan. Bunda tadqiqot obyekti sifatida “Üvey anne”(O‘gay ona) asaridagi asarda ishtirok etgan maqol, matal va iboralar bo‘lib xizmat qiladi. Asarning asl nusxasi va tarjimasi o‘rtasida tahlil olib borilib tarjimonning mahorati ham aniqlanadi.

Kalit so‘zlari:ibora, maqol, matal,tarjimon, tarjima, asliyat, tarjima matni,

Kirish. Har bir tilning o‘ziga xosliklari mavjud bo‘ladi. Bu o‘ziga xosliklar tildagi ifoda shakllari, maqollari, iboralari, matallari kabi tushunchalar vositasida nomoyon bo‘ladi. Frazeologizmlar nutqning ta’sirchanligini oshirish bilan birgalikda u xalqning urf-odati, an‘analari, yashash tarsi, tarixi va dunyoqarashi kabi tushunchalarni ham bildiradi. Inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan frazeologizmlar badiiy adabiyotda ham juda kuchli rol o‘ynaydi. Badiiy tarjimada frazeologizmlarning to‘g‘ri berilishi tarjimashunoslikda juda katta ahamiyatga egadir. Asliyat matndagi frazeologizmlarning tarjimada berilmasligi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi asliyat matndagi ma’noni o‘zgarib ketishiga sababchi bo‘lishi mumkin. Badiiy tarjimada frazeologizmlarning berilishi mavzusida ko‘plab ilmiy ishlar va ilmiy maqolalar chop etilgan. Taniqli tarjimashunos olim G‘.Salomovning “Til va tarjima”¹ va “Rus tilidan

¹ Salomov G‘. Til va tarjima. – Toshkent, 1966. – 270 b.

o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalalariga doir”² kabi tadqiqot ishlari bugungacha tarjimashunos olimlarga ilmiy manbaa va dasturilamal bo‘lib kelmoqda.

Frazeologik birliklarni tarjima qilishda tarjimon juda ko‘p qiyinchiliklarga duch keladi. Chunki asliyat tildagi bir frazeologik birlikni tarjima tiliga o‘girishi lozim bo‘ladi. Bu haqida taniqli tarjimashunos olim G‘.Salomov “Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalalariga doir” nomli risholasida “Tilning asl qaymog‘i, uning o‘ziga xos xususiyatlarini va tabiatini belgilaydigan, uning kamolot darajasini qanday ekanligini ko‘rsatadigan, boshqa tillar o‘rtasida tutgan o‘rnini tayinlaydigan muhim omil bo‘lgan narsa – undagi maqol, matal, idiom avay shu kabi ko‘chma ma’noli birikmalardir. Bunday birikmalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishning g‘oyat murakkab va muhim ish ekanligi bu masalani badiiy tarjima nazaryasining asosiy problemalari qatoriga kiritishga sabab bo‘lmoqda”³.

Maqsad va vazifalar: Mazkur tadqiqot ishining maqsadi, tarjimada maqol, matal va iboralar tarjimasida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash. A.L.Qozonchining “*Üvey anne*”(O‘gay ona) asari va tarjimasi matnlarida ko‘rib chiqiladi. Ishning vazifalari quyidagilar:

- A.L.Qozonchi asarlarida ishlatilyotgan turg‘un birikmalarni aniqlash;
- Asliyat va tarjima matnini tahlil qilib bu birikmalarning qay darajada tarjima qilinganini aniqlash;
- Tahlil davomida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va bajarilgan yutuqlarga bir bir to‘xtalib o‘tish.

² Salomov G‘. Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalalariga doir. – Toshkent: Fan, 1961. – 165 b.

³ Salomov G‘. Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalalariga doir. – Toshkent: Fan, 1961. – B. 18.

Usullar: Maqol, ibora va matallar tarjimasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlashda A.L.Qozonchining “Üvey anne”(O'gay ona) asarining asl nusxasi va o'zbekcha tarjimasini qiyoslash va tahlil qilish usulidan foydalanildi.

Tadqiqot manbasi: A.L.Qozonchining “O'gay ona” asarining asl va o'zbekcha tarjimasini hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti: Tadqiqotning obyekti sifatida A.L.Qozonchining “O'gay ona” asaridagi maqol, ibora va matallar va ularning ikki tarjima matnidagi tarjimasini bo'lib xizmat qiladi.

Natija va mulohazalar: Üvey anne... bu ismi bugüne kadar hakiki manasıyla düşünmemişti. Başına gelmeyen bilmez derler ⁴

Tarjimasini: Shu kungacha bu so'zning haqiqiy ma'nosini tushunmagan ekan. Boshga tushmaguncha bilmas deydi. [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 34].

Bu gapda maqol ishlatilgan *başına gelmeyen bilmez* (tarjimasini: boshga tushmaguncha bilmas) maqoli juda ham yaxshi tarjima qilingan. Lekin bu gapda oddiygina xatolik ko'zga tashlanadi. *Düşünmek* so'zi o'zbek tilida o'ylamoq ma'nosini bildiradi, lekin tarjimon bu so'zni tushunmoq tarzida tarjima qilgan. Nima uchun xato hisoblayapmiz, chunki o'ylab ko'rmoq bilan tushunib yetmoq boshqa boshqa tushunchalardir. Bu juda ham qo'pol xato hisoblanmasa-da, asliyat matnidagi ma'noga boshqacha ma'no yuklashi mumkin. Yuqoridagi gapni bunday tarjima qilganda maqsadga muvofiq bo'lar edi: o'gay ona... bu so'zni bugungacha haqiqiy ma'nosini o'ylab ko'rmagan edi.

*Ah karşı taraftan bir dönme teklifi gelirse, hiç tereddüt etmez, zararın neresinden dönülürse kardır diyerek, bütün alakasını bir anda kesiverirdi*⁵

Tarjimasini: Oh, qarshi tarafdin qaytish taklifi kelsaydi, to'y zararini to'lab, barcha aloqani to'xtatgan bo'lardi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 35].

⁴ Ahmet Lütfi Kazancı. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyatı, 2017. –S. 44.

⁵ Ahmet Lütfi Kazancı. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyatı, 2017. –S. 45-46.

Tarjima ma'noni chiqarib bergan, lekin ba'zi joylarida xatoliklar mavjud. Bu gapda maqol ishlatilgan, tarjimon esa bu maqolni tarjima qilib ketgan. *zararın neresinden dönülürse kardır* maqolining ma'nosi zararli bir ish, bir narsaning yo'l ochadigan salbiy ta'siridan qanchalar tezlik bilan voz kechsa, shuncha manfaatli bo'ladi, zararli ishni qilishda davom etmaslik kerak kabi ma'nolarni bildiradi. Frazеologik birliklarni o'g'irishning beshta qoidasi yoki usulu bor, lekin bu yerda bu qoidalarning hech biriga amal qilinmagan. Agar kalkalash (so'zma-so'z tarjima) usuli qo'llangan deb qaralsa ham, bu usulga mos kelmaydi, chunki asliyatda to'y so'zi va tushunchasi umuman ishtirok etmagan. Bundan tashqari ma'no o'zgarib ketgan, asarning voqealar rivojida to'yning kamchiqim qilib o'tkazish haqida so'z boradi, ya'ni to'yga deyarli xarajat qilinmaydi. Bu esa asarning ma'nosiga putur yetkazishi mumkin. Frazеologik birliklarni o'g'irishning beshta qoidasidan frazeologik birliklarning ma'no jihatdan muqobili topilmagan birlikmalarni erkin birikmalar bilan tarjima qilish usuliga ham mos kelmaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Tarjimashunos olim E.Ochilov bu haqida "Tarjima tilida asliyat tilidagi frazeologizmga mos keladigan variant mutlaqo bo'lmasa, u holda frazeologik birlik so'zma-so'z tarjima qilinadi. Muvofiqlikning umuman yo'qligiga asoslangan bunday tarjima kalka usulida tarjima qilish ham deyiladi"⁶ deb fikr bildirgan. Tarjimashunos olim G'.Salomov esa bu haqida quyidagicha "...shunday maqol va matallar borki, ulardan kelib chiqadigan hikmat hijjalab qilinadigan tarjima ichidagi so'zlarda o'z in'ikosini topmaydi. Ana shunday maqol matallar juda ko'p. Shunday qilib, boshqa tillardagi ko'plab maqol, matal va idiomalarda aks etgan hikmatni ularning ona tilimizdagi muqobillari bilan almashtirish vositasidagina ro'yobga chiqarishimiz mumkin"⁷. Bu parchani quyidagicha tarjima qilganda maqsadga muvofiq bo'lar edi: oh! Qarshi tarafdin qaytish taklifi kelganda edi, hech ikkilanmasdan, zararli ishning qayeridan qaytsa ham foydali deb o'sha ondanoq butun aloqalarni uzib yuborgan bo'lar edi. Yuqorida tarjima uchun bergan

⁶ Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: TDSHI, 2014. – B. 121.

⁷ Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: TDSHI, 2014. – B. 140.

variantda soʻzma-soʻz tarjima usuli orqali maqol tarjima qilindi. Bu asliyatdagi maʼnoga yaqin deb hisoblandi.

*Ama iyi bir kimse ister, kızı da onun öksüzleriyle uğraşmayı göze alabilirse ona deyeceği yoktur. Bu sebeple, müstakbel damadı namına gelenlere muvafakat cevabı verdi*⁸.

Tarjimasi: Aksi boʻlsa, Fotimani oʻz ixtiyoriga qoʻyish kerak. Shu sababdan sovchilarga muvofiq javob berdi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 26].

Bu parchada bir ibora mavjud *göze almak* maʼnosi: bir ish sababli duch kelishi mumkin boʻlgan har qanday zararga va tahlikaga oldindan rozi boʻlishdir. Tarjimon bu iborani tarjima qilmasdan tashlab ketgan. Bu albatta, asliyatdagi maʼnoni tarjimaga koʻchishiga toʻsqinlik qiladi. Ibora qatnashgan jumlani oʻz ixtiyoriga qoʻyish kerak shaklida tarjima qilingan. Bu parchani quyidagicha tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq boʻladi deb hisoblaymiz: Lekin yaxshi odamdan soʻrab kelishibdi, qizi ham uning yetim bolalarini qarashdagi qiyinchiliklariga rozi boʻlsa, unga hech narsa demaydi. Shuning uchun boʻlajak kuyov nomidan kelganlarga mos javob berdi.

Ama günlerdir zihninde adeta arap saçı gibi çözülmez hal alan fikir ve kanaatleri de birden söküp atmak kolay mıydı? Ondaki durgunluğun farkında olan teyzesi: ⁹.

Tarjimasi: Ammo miyasiga oʻrnashib qolgan oʻgay ona haqidagi chigal tasavvurlardan birdan xalos boʻla olamasdi. Jiyanini karaxt holda koʻrgan xolasi bunday dedi: [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 43].

Tarjimasi: Ammo shuuriga necha kunlardan beri oʻrnashib qolgan chigal va ogʻir oʻylarini birdan uloqtirish osonmi? Undagi karaxtlik va turgʻunlikni koʻrgan xolasi [A.L.Qozonchi. Oʻgay ona. 39].

Bu asarni ikki tarjimon oʻzbek tiliga oʻgiran. Birinchi tarjima Shahnoza Muhammadiyevaga, ikkinchisi esa Yoʻldosh Eshbekka tegishli. Bu parchada *arap saçı* iborasi mavjud u chigal, yechim boʻlmaydigan degan maʼnolarni bildiradi. Tarjimonlar bu iboraning oʻzbek tilidagi muqobilini topa olishmagan va soʻz bilan tarjima qilib

⁸ Ahmet Lütfi Kazancı. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyatı, 2017. –S. 31.

⁹ Oʻsha asar. –S. 56.

ketgan. Bu umuman olib qaralganda noto'g'ri hisoblanmaydi. Bu tarjimalardan Yo'ldosh Eshbekning tarjimasini asliyatga yaqinroq deb oldik. Birinchi tarjimada asliyatda yo'q bo'lgan so'zlar qo'shib tarjima qilingan.

Bu gözlerin sahibi, çocukların diğer çocuklardan hiç aşağı kalmaması onların yanında küçük düşmemesi ve bazı kendini bilmezlerin.

– *Ne olacak? Öksüz böyle olur, dememesi için bütün gayretini sarfediyor, her ikisini de daima güller gibi tertemiz bir kıyafetle dışarı çıkarıyordu*¹⁰.

Tarjimasi: bu quvnoq ko'zlar sohibalari boshqalardan kam bo'lmay, oq yuvib, oq tarab, "yetim ahvoli shu bo'ladi, yana nima ham bo'lardi" deyishlariga hojat qoldirmaydigan darajada ko'chaga chiqarilar edi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 45].

Tarjimasi: Bu ko'zlarning sohibi, bolalarning boshqa bolalardan kam emasligi, past kelmaslik kerakligini, ba'zi o'zini bilmaganlar: "Ha, endi, nima bo'lardi, yetim shunday bo'ladi-da!" – demasliklari uchun butun kuch-quvvati va g'ayratini sarflar, har ikkisini ham gulday toza qilib tashqariga chiqarardi [A.L.Qozonchi. O'gay ona. 41].

*Bizi küçük düşürecek, bizi hak yoldan saptıracak, bizi fena yollara sürükleyecek olan arkadaşı her zaman, bulabiliriz*¹¹.

Tarjimasi: Bizni haq yo'lidan chalg'itib, yomon yo'lga boshlaydigan do'st har diom, hatto, lo'lilar orasidan ham topa olishimiz mumkin [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 116].

Yuqoridagi parchada *küçük düşmek* iborasi mavjud. Ma'nosi: qadr va g'ururini kamsitish, yerga urushdir. Birinchi tarjimadagi oq yuvib, oq taramoq asliyatda mavjud emas, bu tarjimada ibora butunlay tashlab ketilgan. Bu asliyatdagi ma'noga putur yerkazmasligi mumkin, lekin badiiy asarning o'ziga xos xususiyati bo'lgan estetikligiga ta'sir qiladi. Bu parchaning tarjimalaridan Yo'ldosh Eshbekning tarjimasini

¹⁰ O'sha asar. –S. 59.

¹¹ Ahmet Lütfi Kazancı. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyatı, 2017. –S. 151.

asliyatga yaqinroq va mazmun jihatdan yaxshiroq tarjima qilingan deb qaraymiz, lekin bu tarjimada ham ibora past ketmoq iborasi bilan berilgan. Bu iborani yerga urmoq iborasi bilan tarjima qilganda maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Keyingi gapda *küçük düşmek* iborasi mavjud. Bu ibora yuqoridagi gapdagi kabi tarjima qilinmasdan tashlab ketilgan va tarjimada *lo'lilar orasidan ham topa olishimiz mumkin* gapi mavjud. Bu esa asliyatda yo'q. Tarjimon ma'noni bo'rtirish uchun ishlatgan. Yuqoridagi gapni quyidagicha tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi: bizni yerga uradigan, haq yo'ldan chalg'itadigan, yomon yo'llarga boshlaydigan do'stni har doim ham topishimiz mumkin.

*Sabahleyin evden çıkarken gözü arkada kalmıyor. Gönlü rahat, kalbi huzur içinde işin başına gidiyor*¹².

Tarjimasi: Odilbek uyidan ko'ngli to'q ishiga ketardi. Ishida ham hotirjam ishlardi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 45].

Tarjimasi: Odilbek azonda uydan xavotirsiz, xotirjam chiqadi. Ishiga ko'ngliga rohat, qalbida huzur bilan keladi [A.L.Qozonchi. O'gay ona. 41].

Bu parcha tarkibida ham bir ibora mavjud *gözü arkada kalmak* [ma'nosi: o'zi u yerdan ketgandan keyin tashlab ketilgan narsa yoki shaxsga nisbatan xovotir olmoq]. Bu ikkala tarjima ham asliyatdagi ma'noni chiqarib bergan va har ikkala tarjima ham asliyatga yaqin deb qaraladi.

*Fatma, diyecek yerde (Hayriye) diyecek oluyor, derhal aklını başına topluyordu*¹³.

Tarjimasi: "Fotima" deyish o'rniga "Xayriya" deb yuboray deydi-yu, aqlini yig'ishtirib olardi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 45].

Tarjimasi: Ba'zan charchagan paytlarida: "Fotima!" deyish o'rniga "Xayriya" deb yuboray deydi-yu, aqlini yig'ishtirib olardi [A.L.Qozonchi. O'gay ona. 41].

Bu barchada *aklını başına toplamak* iborasi mavjud [ma'nosi: mantiqsiz, keraksiz munosabatlarda bo'lmaslik, aqlli ish ko'rishdir]. Bu ikki tarjima ham asliyatdagi

¹² O'sha asar. –S. 59.

¹³ Ahmet Lütfi Kazancı. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyatı, 2017. –S. 59.

ma'noni chiqarib bera olgan, lekin birinchi tarjima asliyatdagi ma'noni yanada yaxshiroq chiqarib bergan deb hisoblaymiz. Chunki asliyatda ba'zan charchagan paytlarida tushunchasi mavjud emas, buni tarjimon tarjima jarayonida qo'shib tarjima qilgan. *Aqlini başına toplamak* iborasini har ikkala tarjimon aqlini yig'ishtirib olmoq shaklida tarjima qilgan. Biz esa aqlini yig'ib olmosh shaklida tarjima qilishni tavsiya qilar edik.

*Adil Beyin tam can damarına basmıştı şimdi. Sevmek ne demek? Çıldırasıya sevmiştı onu*¹⁴.

Tarjimasi: u Odilbekning nozik yeridan olgandi. Sevishga u telbalarcha sevardi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 50].

Tarjimasi: Odilbek jon joyidan ushlangandi. Sevmok – ne degani? Telbalarcha sevardi [A.L.Qozonchi. O'gay ona. 46].

Yuqoridagi parchada *damarına basmak* iborasi mavjud bu ibora bir odam uchun ahamiyatli va muhim bo'lgan narsa uchun g'azablantirish ma'nosini bildiradi. Yuqoridagi ikki tarjima ham asliyatdagi ma'noni chiqarib bera olgan. Badiiy asarda ko'plab maqol va iboralardan foydalanish yozuvchining tilni va xalqning chuqur madaniyatini bilganligini aks ettiradi. Bu fikrni quyidagi fikr bilan mustahkamlashimiz mumkin: Romanlarida iboralarga ko'p yer bergan yozuvchi, millatning til boyliklariga ega ekanligini ko'rsatadi. Ko'plab iboradan foydalanish dilni jonli qilgan va boyitadigan bir usuldir¹⁵. Yuqoridagi ikki tarjima ham asliyatga muvofiq tarjima qilingan.

*Kadın, hasta olmasına rağmen Fatma Hanımın çocuklarla olan münasebetini gözden kaçırmıyordu*¹⁶.

Tarjimasi: Ayol bemor bo'lishiga qaramasdan, Fotimaxonimning bolalarga munosabatini ko'zdan qochirmasdi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 64].

Tarjimasi: Momo bemor bo'lishiga qaramasdan Fotimaxonning bolalarga munosabatini ko'zdan qochirmasdi. Y 58b

¹⁴ O'sha asar. –S. 66.

¹⁵ Çetin N. Roman Çözümleme yöntemi. – Ankara: Öncü kitap yayınları, 2009. – S. 259.

¹⁶ O'sha asar. –S. 83.

Yuqoridagi parchada *gözden kaçırmaq* iborasi mavjud bu ibora beparvolik bilan ko'rmalik ma'nosini bildiradi. Bu iborani har ikkala tarjimon ham to'g'ri tarjima qilgan, ya'ni ko'zdan qochirmaslik iborasi bilan. Bu iboraning ma'nosi "kim kimni yoki nimani doim kuzatib turmoq. Kundoshlar maslahatlashib, cho'rini bir nafas ham ko'zdan qochirmaslikka qaror qildilar (A.Muxtor. Opa singillar)"¹⁷. Albatta, bi ikki til bir-biriga yaqin bo'lgani uchun iboralarning shakli va ma'nosi bir xil bo'lishi mumkin, lekin shunday iboralar ham borki, ularning shakli bir xil bo'ladi, ma'nosi esa umuman boshqa boshqa bo'ladi. Misol uchun, bel bog'lamoq va bel baglamak iboralari shaklan bir xil. O'zbek tilidagi ibora bir ishni qilishga azm qilish, bir ishni qilishga astoydil kirishish ma'nolarini bildiradi. Turk tilidagi iboraning ma'nosi esa ishonmoq, ishonib qolmoq ma'nolarini bildiradi (Ne var ki biz böyle araçlara pek bel bağlamayız- Ammo biz bunday vositalarga ko'p ham ishona olmaymiz. T.halman). Bunday o'xshashliklar yaqin tillardan tarjima qilishda juda qo'l kelishi bilan birgalikda bu tillardan tarjima qilishni qiyinlashtirishi ham mumkin.

*Onun yerine çocukların başına bir üvey anne getirecek diye kendi kendini yiyordum*¹⁸.

Tarjimasi: Uning o'rniga bolalar boshiga o'gay ona keltiradi, deb o'zimni yeb ado qildim [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 65].

Tarjimasi: uning o'rniga, bolalar boshiga o'gay ona keltiradi deb o'zimni yeb ado qildim [A.L.Qozonchi. O'gay ona. 59].

Yuqoridagi gapni ikki tarjimon ham bir xil tarjima qilgan. Bu gapda *kendi kendini yemek* iborasi mavjud. Bu ibora istagan ishi amalga oshmadi deb yashirincha xafa bo'lmoq, azoblanmoq, ich-ichidan ezilmoq ma'nolarini bildiradi. Bu iboraning o'zbel tilidagi muqobili *ich-etni yemoq*dir. Ich-etini yemoq iborasi "Ruhan azoblanmoq, dardini birovga aytmasdan ezilmoq"¹⁹ ma'nolarini bildiradi. Yuqoridagi tarjima ham juda to'g'ri tarjima qilingan, chunki bir iboraning qarshiligi boshqa tilda bir necha ibora bilan berilishi mumkin. Albatta, so'zlarda bo'lgani kabi iboralarda ham

¹⁷ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – B. 133.

¹⁸ Ahmet Lütü Kazancı. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyatı, 2017. –S. 84.

¹⁹ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – B. 118.

ma'nodoshlik hozisasi bor. O'zini yemoq yoki o'zini o'zi yemoq iboralari ich-etini yemoq iborasi bilan ma'nodosh hisoblanadi. Bu iboraning ma'nosi: "ichki ruhiy azoblanish natijasida ozib-tozib ketmoq"²⁰dir. Ma'no jihatdan biroz farqli, ammo bir birining o'rnida ishlatish mumkin. Quyidagi gapda *ich içini yemek* iborasi mavjud. Bu iboraning ma'nosi: istagan ishini qila olmagan uchun xafa bo'lmoqdir. Tarjimada to'g'ri ibora qo'llanilgan, agar buni o'zini yemoq iborasi bilan tarjima qilganda xato bo'lar edi.

*Öksüzlere arka çıkan, onların hakkını görüp gözetten iyi insanlar hürmetine.*²¹

Tarjimasi: Yetim boshini silagan, ularni o'z qaramog'iga olgan ve mehr ko'rsatgan insonlar haqqi...[A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 70].

Tarjimasi: Yetimlarga yelka tutgan, qo'l uzatgan, haqqini qo'rgan yaxshi insonlar hurmati... [A.L.Qozonchi. O'gay ona. 66].

Yuqoridagi gapda *arka çıkmak* iborasi mavjud. Bu ibora kimlardandir bir insonni qo'riqlamoq, himoya qilmoq, yordam bermoq va qo'llab quvvatlamoq ma'nolarini bildiradi. Birinchi tarjimada boshini silamoq va mehr ko'rsatmoq tushunchalari asliyatda mavjud emas. Tarjimada ma'no chiqarib berilgan, lekin asliyatda berilgan ma'no va shaklga zarar yetgan. Ikkinchi tarjimada esa *arka çıkmak* iborasi yelka tutmoq va qo'l uzatmoq iboralari bilan tarjima qilingan va bu tarjimani asliyatga yaqin tarjima deb olishga sabab bo'ladi. Yozuvchilar nima uchun frazeologik birliklardan foydalanishadi? Chuki oddiy gaplarga qaraganda majoziy ma'nodagi gaplar, maqol, ibora va matal ishlatilgan gaplar ta'sirchanroq bo'ladi. Shuning uchun ham tarjima jaroyonida asliyatda maqol, ibora va matal kabi frazeologik birliklar mavjud bo'lsa, ularni frazeologik birliklar bilan tarjima qilishga harakat qilish kerak. Yozuvchilarning asarlariga maqollar va iboralarni qo'shishi, ularning tuyg'u va tasavvur kuchini yanada boyitgan, ta'sirchan qilgan²².

*Fakat onun rahat nefes almaya başladığını görünce içi ferahladı*²³.

²⁰ O'sha asar. – B. 281.

²¹ Ahmet Lütfi Kazancı. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyatı, 2017. –S. 193.

²² Kahraman A. Trabzonlu Figani'de atasözleri ve deyimler eski türk edebiyatı incelemeleri. – İstanbul: İstanbul üniversitesi edebiyat fakültesi matbaası, 1980. – S. 43.

²³ O'sha asar. –S. 94.

Tarjimasi: Faqat bermalol nafas olayotganini ko‘rgach tinchlandi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 72].

Yuqoridagi gapda *içi ferahlamak* iborasi mavjud. Bu ibora boshiga kelgan qayg‘u va g‘amdan soqit bo‘lmoq ma’nosini bildiradi. Yuqoridagi tarjimada bu ibora tinchlanmoq fe’li bilan berilgan, albatta, bu xató hisoblanmaydi. Asliyatdagi ma’no chiqarib berilgan, lekin bu gapni quyidagicha tarjima qilganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi: faqat uning bermalol nafas olishni boshlaganini ko‘rgandan keyin ko‘ngli taskin topdi.

*Bazen zavallı anneme de dil uzatıyor*²⁴.

Tarjimasi: Bechora onamga ham til tekizadi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 76].

*Hiç olmazsa elin hanımına dil uzatmayın*²⁵.

Tarjimasi: Hech bo‘lmasa unga til tekizmaylik [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 87].

*Onun da bir çocuğu olsun da görsün, bakın o zaman bunların beş paralık kıymeti kalır mı diyenler oldu*²⁶

Tarjimasi: “O‘zining bolasi tug‘ilsa ko‘ramiz, bularning bir pullik qimmatini qolarmikin”,– deydiganlar ham topildi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 86].

“E...”in yalan söyledikten sonra, ona neden doğru söylelediğini soran arkadaşına verdiği cevap hepsinin tuzu biberi olmuştu [Kazancı A. Üvey anne. 154].

Tarjimasi: Erto‘g‘ondan to‘g‘ri gapirmaganing sababini so‘raganda bergan javobi xuddi yaraga tuz sepganday bo‘ldi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 118].

*Aradan geçen on bir seneye yakın bir zaman onu etin turnağa bağlılığı gibi bu çocuklara bağlamış, adeta onların üvey çocukları olduğunu kendi de unuttur gibi olmuştur*²⁷.

²⁴ O‘sha asar. –S. 98.

²⁵ O‘sha asar. –S. 116.

²⁶ Ahmet Lütfi Kazancı. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyatı, 2017. –S. 115.

²⁷ O‘sha asar. –S. 174.

Tarjimasi: Oradan kechgan o‘n bir yil vaqt uni et bilan tirnoqday bolalarga bog‘lab qo‘ydi, ularning o‘gayligini deyarli unutdi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 136].

Böyle zekası yerinde, istikbal vadeden yavruları modası geçmiş şeylerle uğraştırmak hoş bir şey değildir²⁸.

Tarjimasi: Aqlu zakovati joyida, istiqboli porloq yoshlarni almisoqdan qolgan, eskichilik bilan o‘qitish to‘g‘ri emas [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 97].

Tarjimasi: Aqlu zakovati joyida, istiqboli porloq yoshlarni almisoqdan qolgan, zamonaviy bo‘lmagan ishlar bilan mashg‘ul qilish nobakorlikdir [A.L.Qozonchi. O‘gay ona. 93].

Yuqoridagi misollarning ikkitasida *dil uzatmak* iborasi mavjud. Bu ibora “hurmat qilinadigan shaxs, joy, narsa haqida ijobiy bo‘lmagan, pastga uradigan gaplarni gapirmoq²⁹” ma’nolarini bildiradi. Tarjimon bu iborani o‘zbek tilidagi til tekizmoq iborasi bilan tarjima qilgan va bu tarjima asliyatga muvofiq tarjima qilingan deyishimiz mumkin. Bu ikki xalqning umumiy tarixga ega madaniyati bo‘lgani uchun iboralari ham bir biriga yaqin. “Turli xalqlar frazeologik birliklarining bir-birlariga har jihatdan o‘xshashligi aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlar va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Zero, boshqa til vositalari singari frazeologizmlar ham turli-tuman umuminsoniy fikr bayon qilish me’yorlari va hayotiy kuzatishlar asosida vujudga keladilar. Natijada turli tillar barqaror so‘z birikmalari bir xil obrazli asosdan iborat bo‘lib qoladilar... Masalan, inglizcha “Cold war”, “An open hand”, “To suck somebody’s blood” kabi barqaror birliklar o‘zbekcha “Sovuq urush”, “Ochiq qo‘l”, “Birovning qonini so‘rmoq” frazeologizmlarining mutlaq ekvivalentlari bo‘lib, tarjima jarayonida ularning biri ikkinchisini barcha nutqiy vaziyatlarda bimalol almashtiraverishi mumkin”³⁰.

Keyingi misolda *beş paralık* iborasi mavjud. Bu iborani tarjimon bir pullik deb tarjima qilgan. Keying misolda esa *tuz biber olmak* iborasini yaraga tuz sepmoq

²⁸ O‘sha asar. –S. 128.

²⁹ Yusuf Ç. Türkçe atasözleri ve deyimleri sözlüğü. – İstanbul: Toroslu kitablığı, 2004. – S. 169.

³⁰ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 185-186.

iborasi bilan tarjima qilgan. Oxirgi misolda *etin turnaği gibi* iborasi et bilan tirnoqday iborasi bilan tarjima qilingan. Bu misollar bilan tarjimonning bu asar tarjimasini yaxshi tarjima qilgan deyishimiz mumkin.

Bu asarni tarjima qilish jarayonida tarjimon asliyatda frazeologik birliklar ishlatilmagan bo'lishiga qaramasdan frazeologik birliklar bilan tarjima qilgan. Buni quyidagi gaplar misolida ko'rib chiqishimiz mumkin. Birinchi gapda *anlayabilen için bu kadarı fazla bile sayılırdı* (tushunganga shuni o'zi ham ko'plik qilar edi) ganpi "Tushunganga shunisi ham ziyoda, yaxshi otga – bir qamchi" tarzida tarjima qilingan va bu asliyatdagi ma'noni kuchaytirib talqin qilishga xizmat qilgan deyishimiz mumkin. Keyingi gapda ham asliyatda ibora ishlatilmagan bo'lsa ham, tarjimada ibora bilan o'giran. Va oxirgi gapda ham asliyatda oddiy so'z bilan berilgan tushuncha o'zbek tiliga ibora bilan mohirona tarjima qilingan.

*Anlayabilen için bu kadarı fazla bile sayılırdı*³¹

Tarjiması: Tushunganga shunisi ham ziyoda, yaxshi otga – bir qamchi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 84].

– *Bak döverim sonra Hüseyin, demesine aldırış etmeden kapıdan fırladı*³².

Tarjiması: – Qochsang, tutib olib kaltaklayman, Husayn,– deyishiga qaramasdan eshikdan chiqib, juftakni rostlab qoldi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 91].

*Ama ne zararı var?*³³

Tarjiması: Uning esa parvoyi falak [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 143].

Verecek olurlarsa mesele yok. Vermezlersei kimse farkına bile varmadan, kapanır gider bu iş [Kazancı A. Kaynana Münevver hanım. 32].

Tarjiması: Xo'p deyishsa, masala hal bo'ladi. Lekin, aksincha bo'lsa, ilojimiz yovq. yopig'liq qozon yopig'ligicha qoladi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 199].

*İkindi sonu okuldan eve gelen Hüseyin'de bir durgunluk göze çarpıyordu*³⁴

³¹ Ahmet Lütfi Kazancı. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyatı, 2017. –S. 112.

³² O'sha asar. –S. 92..

³³ O'sha asar. –S. 120.

³⁴ O'sha asar. –S. 89.

Tarjimasi: Tushdan keyin maktabdan uyga qaytgan Husaynda parishonlik sezilardi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 76].

Yuqoridagi gapda *göze çarpmak* iborasi ishlatilgan. Bu ibora ko‘rinishi bilan diqqatni tortmoq ma’nosini bildiradi. Tarjimon bu iborani sezilmoq fe’li bilan tarjima qilgan, lekin bu iboraning o‘zbek tilidagi muqobili bor. Ko‘zga tashlanmoq iborasi mavjud. Bu ibora “ro‘y-rost, aniq ko‘rinmoq va aniq ajralib, sezilib turmoq”³⁵ ma’nolarini bildiradi. Bu gapni quyidagicha tarjima qilganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi: Tushdan keyin maktabdan qaytgan Husaynda parishonlik yaqqol ko‘zga tashlanar edi.

*Bazen dünyanın en kudretli ordularının baş edemediği bir milletin çocukları, fikir ve ahlak yönüyle öyle bozulur ki bu hale geleceklerini rüyada gören inanmaz*³⁶.

Tarjimasi: Ba’zan dunyoning eng kuchli qo‘shiniga bosh egmagan millatning bolalarini shunday ma’rifiy-ma’naviy buzg‘inlik zabt etadiki, ko‘rib ishonmaysiz [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 113].

Yuqoridagi gapning ma’nosi to‘g‘ri chiqarib berilgan, lekin asliyatda berilgan *baş etmek*[ma’nosi: kuchi yetmoq, muvafaqqiyatga erishmoq] iborasi *bosh egmoq* iborasi bilan tarjima qilingan. Bu ibora itoat qilmoq, itoatkor bo‘lmoq ma’nolarini bildiradi. Bu iborani kuchi yetmoq yoki qurbi yetmoq iboralari bilan tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. *Kuchi yetmoq* iborasi amalga oshirishga jismonan yoki ruhan qodir bo‘lmoq, ojizlik qilmaslik ma’nolarini bildiradi. Kuchi yetmoq iborasininng ma’nodoshi qurbi yetmoq iborasidir. Bu gapni quyidagicha ibora qilish maqsadga muvofiq edi: ba’zan dunyoning eng qudratli qo‘shinlarining kuchi yetmagan bir millatning farzadlari ma’rifiy-ma’naviy jihatdan buzuladiki, tushda ko‘rsangiz ham ishona olmaysiz.

*Akşamdan sigara içen arkadaşlarının foyalarını meydana çıkaracaktı*³⁷

³⁵ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – B. 132.

³⁶ Ahmet Lütfi Kazancı. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyatı, 2017. –S. 147..

³⁷ O‘sha asar. –S. 153.

Tarjimasi: Oqshom chekkan sinfdoshlarining illatlari ochilmoqda edi [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 117].

Foyasi meydana chikmak iborasi bir sabab tufayli yolgʻoni, hiylasi, yomon xislati, aybi oshkor boʻlmoq maʼnosini bildiradi. Bu iborani illatlari ochilmoq erkin iborasi bilan tarjima qilgan va asliyatdagi ibora maʼnosini toʻliq chiqarib bergan. Gapda gelecek zaman hikayesi (kelasi zamon hikoya zamoni) ishlatilgan, lekin tarjimada hozirgi zaman ishlatilgan, ish-harakat ayni zamonda sodir boʻlmayotgani uchun u gapni kelasi zamonda tarjima qilish kerak edi. Yuqoridagi gapni bu tarzda tarjima qilish maqsadga muvofiq boʻlar edi: kechasi tamaki chekkan doʻstlarining illatlari fosh boʻlar edi.

Xulosa: Har bir xalqning oʻziga xos boʻlgan frazeolgik birliklari mavjud boʻladi. Bu bobda turklarga xos boʻlgan frazeolgik birliklar yaʼni maqol, ibora va matallar “Oʻgay ona” asarida qanday darajada ishlatilgan. Yozuvchilar oʻz asarlarida xalqning jonli tilidan qanchalar koʻp foydalansa, asarning qiymati ham shuncha oshadi. Shu bilan birga iboralardan foydalanish ham juda katta mahorat talab qiladi. Yozuvchilar oʻquvchining asarni oʻqish davomida zerikmasligini oldini olish maqsadida koʻplab maqol va iboralardan foydalanishadi. Romanlar hikoya qilish janrining bir turidir. Oldin yozma adabiyot shakllanmagan bir davrda hikoya qiluvchi jonli bir inson boʻlgan, hikoyachi tinglovchining koʻrsatadigan qarshligiga qarab hikoya qilish usulini oʻzgartirgan va lerik chekinish qilgan yoki boʻrtirib hikoya qilgan. Yozma adabiyot shakllangandan keyin esa yozuvchilar oʻrtasida oʻquvchiga birdek yoqadigan asarlarni yozish muammosi paydo boʻlgan. Shundan keyin har bir yozuchi oʻzgacha uslubda yozishga harakat qilgan. Diqqat bilan eʼtibor beradigan boʻlsak, deyarli har bir yozuvchining oʻziga xos uslubi mavjud. Bu uslubning baholar ekanmiz, albatta, oʻz asarlarida ibora va maqollardan qay darajada foydalanganiga qaraymiz. Oʻz asarlarida maqol va iboralarga koʻp yer bergan yozuvchi, oʻz tilini va adabiyotini chuqur bilishining dalolati hisoblanadi. Tarjimashunoslikda ham maqol va iboralar tarjimasi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki maqol va iboralarning tarjimasi anchagina murakkab bir jarayon hisoblanadi. Turk va oʻzbek tillari qardosh til boʻlishiga

qaramasdan maqol va iboralar tarjimasida bir muncha qiyinchiliklar kelib chiqadi. Buning sabablaridan biri bu aldoqchi soʻzlardir. Ikki tilda shakllan bir xil lekin bildiradigan maʼnolari boshqa boshqa boʻlgan soʻzlar juda koʻp. Bu faqatgina soʻzlarga bogʻliq bir tushuncha emas, balki maqol va iboralarga ham maqol va iboralarga boʻliqdir. Bugungi kungacha frazeologik birliklar tarjimasi juda ham koʻp miqdorda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan boʻlishiga qaramay hozirgi kunda muammoli bir jarayon sifatida koʻriladi. Yaqin tillardan tarjima qilishda koʻp qiyinchilik tugʻdirmasligi mumkin, lekin uzoq tillardan bunday birliklarni tarjima qilish biroz mushkul. Bu asarni tarjima qilish jarayonida maqol va iboralarni tarjimonlar koʻp qismini juda yaxshi tarjima qilgan. Baʼzi joylarda kamchiliklar mavjud. Tarjima jarayonida gap tuzulishi qayta yaratilgan, yaʼni shakllan oʻzgargan joylar mavjud. Soʻroq gap darak gap shaklida, darak gap soʻroq gap shaklida, boʻlishli gap boʻlishsiz gap shaklida tarjima qilingan. Bu usul bilan aslyatdagi maʼno deyarli yoʻqolmagan, albatta, baʼzi joylarda kamchiliklar uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxari:

1. Ahmet Lutfi Kazanci. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyatı, 2017. – 231 s.
2. Ahmad Lutfi Qozonchi. Eng sara asarlari. – Toshkent: Book Media Nashr, 2020. – 592 b. (Tarjimon: Shahnoza muhammadiyeva)
3. Ahmad Lutfiy Qozonchi. Oʻgay ona. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023. – 173 b. (tarjimon: Yoʻldosh Eshbek)
4. Ahmet Lutfi Kazanci. Kaynana Münevver hanım. – İstanbul: Ensar, 2011. – 234 s.
5. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – 660 b.
6. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1978. – 636 b.
7. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 352 b.

8. Yusuf Ç. Türkçe atasözleri ve deyimleri sözlüğü. – İstanbul: Toroslu kitablığı, 2004. – 621 s.
9. Kahraman A. Trabzonlu Figani'de atasözleri ve deyimler eski türk edebiyatı incelemeleri. – İstanbul: İstanbul üniversitesi fakültesi matbaası, 1980. – 163 s.
10. Çetin N. Roman çözümleme yöntemi. – Ankara: Öncü kitap yayınları, 2009. – 189 s.
11. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti . – Toshkent, 2012. – 124 b.
12. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2014. – 227 b.
13. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 258 b.
14. Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – 384 b.
15. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 187 b.
16. Salomov G'. Rus tilidan maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. – Toshkent: Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961. – 78 b.